JANUBIY FARG‘ONA HUDUDIDA TARQALGAN CURCULIONIDAE OILASINING RIZOFAG TURLARI VA ULARNING MORFOLOGIYASI

[a]Axmadjonova Muxlisaxon Anvarjon qizi
[a]Farg‘ona davlat universiteti 1-kurs tayanch doktoranti

[b]Zokirova Gulnoraxon Mamadjonovna
[b]Farg‘ona davlat universiteti *b.f.f.d (PhD),dotsent*

Annotatsiya:*Maqolada Janubiy Farg‘ona hududida uchraydigan Curculionidae oilasining rizofag vakillari, ularning oziqlanish xususiyatlari va xo‘jalik ahamiyati yoritilgan. Rizofag uzunburun qo‘ng‘izlarning asosiy qismi Cleoninae va Entiminae kenja oilalariga mansub bo‘lib, lichinkalari o‘simlik ildizlari va ildiz bo‘g‘izi to‘qimalari bilan oziqlanadi. Tadqiqotlar 2023-2026 yillar davomida olib borilgan bo‘lib, Janubiy Farg‘ona hududi agrotsenozlari va tabiiy hududlarda olib borilgan.*

Kalit so‘zlar: *Curculionidae, rizofaglar, Cleoninae, Sitona, Lixus, Farg‘ona vodiysi.*

ASOSIY QISM

Curculionidae oilasi Coleoptera turkumining eng yirik oilalaridan biri bo‘lib, dunyo faunasida 60 mingdan ortiq tur bilan ifodalanadi [1, 15–18-b.; 2, 437–440-b.] Markaziy Osiyo hududida ushbu oilaning ko‘plab vakillari tarqalgan bo‘lib, ular orasida ildizlarda rivojlanuvchi rizofag turlar muhim o‘rin tutadi.

Ter-Minasyan (1967) ma'lumotlariga ko‘ra, Cleoninae kenja oilasining ko‘pchilik vakillari lichinkalik davrida o‘simliklarning ildiz va ildiz bo‘g‘izida rivojlanadi [3, 5–18-b.]. Jumladan, *Cleonis pigra* (Scopoli, 1763), *Cyphocleonus achates* (Fåhraeus, 1842), *Bothynoderes punctiventris* Germar, 1824 kabi turlar tipik rizofaglar hisoblanadi. Dukkakli ekinlar agrotsenozlarida keng tarqalgan *Sitona lineatus* Linnaeus, 1758, *S. cylindricollis* Fahraeus, 1840 va *S. macularius* (Marsham, 1802) turlarining lichinkalari ildiz tuganaklari hamda mayda ildizlarni zararlaydi. Natijada azot fiksatsiyasi pasayib, o‘simlik rivojlanishi susayadi [4, 520–530-b.; 5, 180–190-b.].

Lixus avlodining ayrim vakillari ham rizofag yoki ildiz bo‘g‘izi bilan bog‘liq rivojlanish xususiyatiga ega. Ter-Minasyan (1967) hamda Arzanov va Grebenshchikov (2017) ma'lumotlariga ko‘ra, Markaziy Osiyoda tarqalgan ayrim *Lixus* turlari sho‘radoshlar va murakkabguldoshlar ildizlarida rivojlanadi [3, 98–115-b.; 6, 120–145-b.].

Farg‘ona vodiysi sharoitida beda, no‘xat, loviya va qand lavlagi agrotsenozlari rizofag Curculionidae vakillarining asosiy yashash muhitlaridan hisoblanadi. Ularning tarqalishi tuproq namligi, ozuqa o‘simliklari tarkibi va agrotexnik tadbirlar bilan chambarchas bog‘liq.

Sitona crinitus Herbst, 1795 Morfologiyasi. Uzunligi 3-5 mm. Shakli ovalsimon. Rangi och jigarrangdan to‘q jigar ranggacha. Tuklari qisqa, tik va ba’zi joylarida oq rangda. Ko‘zlari yumaloq, oyoqlari ingichka va och jigarrang.



Rasm muallifi: Axmadjonova Muxlisaxon,
Farg‘ona viloyati, Beshariq tumani
(40°25'26"N 70°34'57"E)
23.04.2024
1-rasm. *Sitona crinitus* Herbst, 1795 Original

Sitona cylindricollis Fahraeus, 1840
Morfologiyasi. Uzunligi 3.5-5 mm. Shakli ovalsimon. Tuklari kam va qisqa,
Rasm muallifi: Axmadjonova Muxlisaxon,



Farg‘ona viloyati, Beshariq tumani
(40°25'26"N 70°34'57"E)
23.04.2024
2-rasm. *Sitona cylindricollis* Fahraeus, 1840

Sitona lineellus Bonsdorff, 1785 Morfologiyasi. Uzunligi 2.6-3.7 mm. Shakli ovalsimon rangi to‘q jigarrangdan och jigarranggacha. Tuklari tik, qisqa, lekin pastki qismdagilari biroz egilgan. Ko‘zlari yumaloq. Oyoqlari nozik va och jigarrang.

Sitona humeralis Steph.

Morfologiyasi.

Tana shakli: cho‘zilgan, biroz yassi. Tana uzunligi: 3,5 – 5,0 mm Rangi: kulrang yoki jigarrang, ustida mayin tukchalar bilan qoplangan. Tana qismi tukli bo‘lib, har xil yoritishda kul-jigarrang tusda ko‘rinadi. Elytralar (qattiq qanotlar) bo‘ylab uzunchoq chiziqlar (qatlamalar) mavjud. Boshi kichik, buruncha (rostrum) shaklida oldinga cho‘zilgan – bu Curculionidae oilasining tipik belgisi. Ko‘zlari: katta, yon tomonda joylashgan, murakkab ko‘zlar. Antennalari: tizzasimon bukilgan, 11 bo‘g‘imli, rostrumning o‘rtasidan chiqadi. Elytralar tana orqa qismini to‘liq yopib

turadi. Ular ustida 9–10 ta yengil ajralib turuvchi bo‘ylama qatlamlar (strelar) mavjud. Har bir qatlamda nozik nuqtachalar va tukchalar bor. Oyoklar 3 juft, har biri 5 bo‘g‘imli. Rangi: och jigarrangdan to‘q kulranggacha. Orqa oyoqlari boshqa juftlarga nisbatan biroz uzunroq, harakat uchun moslashgan. Erkaklar biroz kichikroq va harakatchanroq bo‘ladi. Ayollar kattaroq va qorni kengroq – tuxum ko‘tarish uchun moslashgan.

Sitona inops Gyllenhal, 1832.

Morfologiyasi.

Tana shakli: cho‘zilgan, silindrsimon, orqaga qarab torayuvchi. Tana uzunligi: 4,0 – 5,5 mm. Rangi: kulrang-jigarrang, usti mayin tukchalar bilan qoplangan. Elytra (qattiq qanotlar) ustida yengil ajralib turuvchi chiziqlar bor. Tashqi ko‘rinishda *Sitona humeralis* ga o‘xshash, lekin tanasi ingichkaroq va orqaga qarab biroz ko‘proq toraygan. Buruncha: qisqa va keng, oldinga cho‘zilgan. Og‘iz apparati: kemiruvchi tipda, barglarni kemirishga moslashgan. Ko‘zlari: yirik, murakkab, boshning yon tomonlarida joylashgan. Antennalari: 11 bo‘g‘imli, tizzasimon bukilgan, rostrumning o‘rtasidan chiqadi, oxirgi bo‘g‘imlar bir oz kalta va o‘ralgan.Oyoqlari 3 juft, har biri 5 bo‘g‘imli. Rangi – och jigarrang yoki kulrang. Oyoqlarning oxirgi bo‘g‘imlari kenglashgan, harakat va tutunishga moslashgan.

Lixus Bardanae J.C. Fabricius, 1787.

Morfologiyasi: Uzunligi 7,5-10,8 mm. Tumshug‘i egilgan. Bosh qismi yon tomondan biroz siqilgan. Elitrasi uzunchoq, tanasi qora, ostki qismi va oyolari mayda tuklar bilan qoplangan. Oyoqlari ingichka va nozik

XULOSA

Farg‘ona vodiysida Curculionidae oilasining rizofag vakillari orasida *Sitona*, *Cleonis* va ayrim *Lixus avlodi* turlari muhim o‘rin tutadi. Ularning biologiyasi va ekologiyasini chuqur o‘rganish qishloq xo‘jaligi ekinlarini himoya qilish tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alonso-Zarazaga M.A., Lyal C.H.C. A World Catalogue of Families and Genera of Curculionoidea (Insecta: Coleoptera). Barcelona: Entomopraxis, 1999. – 315 p.

2. Legalov A.A. Annotated catalogue of the weevils of the world (Coleoptera: Curculionoidea). Acta Biologica Sibirica, 2020. Vol. 6. P. 437–549.

3. Тер-Минасян М.Е. Жуки-долгоносики подсемейства Cleoninae фауны СССР. Л.: Наука, 1967. – 142 с.

4. Dieckmann L. Beiträge zur Insektenfauna der DDR: Coleoptera – Curculionidae (Brachycerinae, Otiorrhynchinae, Brachyderinae). Berlin, 1980.

5. Velázquez de Castro A.J., Alonso-Zarazaga M.A., Outerelo R. Taxonomic review of the genus *Sitona* Germar in the Palearctic Region. // Graellsia. 2007. Vol. 63. P. 171–214.

6. Arzanov Yu.G., Grebenshchikov O.S. Weevils (Coleoptera: Curculionidae) of Central Asia. Rostov-on-Don, 2017.

7. Temreshov I.I. Curculionidae of Kazakhstan and adjacent territories. Almaty, 2024.